
VILOYAT HOKIMI XAYRULLO BOZOROV YEVROPA PARLAMENTI A'ZOSI JOSE RAMON BAUZA DIASNI QABUL QILDI

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov YEvropa Parlamentida Transport va turizm qo'mitasining "Yangi YEvropa" koordinatori va YEvropa turizm bo'yicha ishchi guruhining boshqaruv guruhi a'zosi Jose Ramon Bauza Dias bilan uchrashuv o'tkazdi.

Samimiy o'tgan muloqotda mehmon Farg'onada juda katta imkoniyatlar borligiga guvoh bo'lgani, viloyatda turizmni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarni ko'rgan holda Qo'qon shahrida o'tkazilayotgan forumlarda qatnashayotganligi, ushbu forumlar turli davlatlardan tashrif buyurgan mehmonlar uchun ham manfaatli bo'lishini ta'kidladi.

Uchrashuv davomida ko'p sohalar bo'yicha muzokaralar olib borildi. Sayohat turizmi, ziyorat turizmi va boshqa turizm yo'nalishlari bo'yicha kelgusida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan kelishib olindi.

Evropa Ittifoqi deputati lavozimida ham ishlaganligini qayd etgan Jose Ramon Bauza Dias, viloyat hokimini kelgusi yil fevral-mart oylarida Ispaniyada o'tkaziladigan xalqaro turizm forumiga taklif qildi. Ushbu forumga dunyoning yirik ishbilarmonlari ishtirok etishi kutilayotganligini ma'lum qilib, ushbu forum orqali Farg'ona viloyati uchun yangi imkoniyatlar, yangi hamkorlarni topish uchun xizmat qilishi qayd etildi.

Viloyat hokimi har bir bildirilgan takliflar juda o'rinli ekanligini qayd etib, hamkorlikda ishlarni davom ettirishga va taklif etilgan forumda ham ishtirok etishini ma'lum qildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2024-10-19 00:17:22